QADIMGI YUNON VA QADIMGI XITOY FALSAFASIDA – QADRIYATLAR MASALASI

Uzokov Botir
Jizzax politexnika instituti, Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti

Annotatsiya

Maqolada qadriyatlarning o‘zaro bog‘liqligi, bu bog‘liqlikda bevosita qadimgi davlatlarning ham alohida o‘rni va roli borligiga alohida e’tibor qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so‘zlar: Qadimgi Yunon, Qadimgi Xitoy, falsafa, qadriyat, Konfutsiy , “Shu szin”, “Tarix kitobi”, “Hujjatlar kitobi” va h.k.

Аннотация

В статье подчеркивается взаимозависимость ценностей, особое место и роль древних государств в этом отношении.

Ключевые слова: Древняя Греция, Древний Китай, философия, ценности, Конфуций, «шу цин», «Книга истории», «Книга документов» и др.

Keywords: Ancient Greece, Ancient China, philosophy, value, Confucius, "shu tsin", "Book of History", "Book of Documents", etc.

Annotation

The article emphasizes the interdependence of values, the special place and role of the ancient states in this relation.

Keywords: Ancient Greece, Ancient China, philosophy, value, Confucius, "shu tsin", "Book of History", "Book of Documents", etc.

Qadimgi Gretsiya falsafiy tafakkurida huddi Qadimgi Sharq falsafiy tafakkurida bo‘lganidek ong sinkretizmini, uning avval boshdanoq qadriyatli tabiatga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Pifagorchilarda estetik, etik va aqliy rivojlanish bir-biridan farqlanmas va go‘zallik foydalilikdan ajralmagan edi. Sokrat, Platon, Aristotel qarashlarida qadriyatli ong barqarorlashdi. Qadimgi grek falsafasi g‘oyat aksiologik xarakterga ega edi. Uni oziqlantirgan va olam to‘g‘risida qadriyatli tasavvur bergan mifologiya haqida gapirmaganda ham, uning qadriyatli ibtidosi Pifagor va Geraklitning kosmogonik falsafasi bilan uzviy bog‘liq edi. Grekcha “kosmos” so‘zi faqatgina olam va tabiatnigina emas, balki go‘zallikni ham ifodalagan. Keyinchalik falsafa antropologik xarakterga ega bo‘ldi: u olamga qadriyatli munosabatning mezoni va prinsiplari, qadriyatning turlicha ko‘rinishlari masalasini qo‘ydi. Unda insonning olamga va olamning insonga bo‘lgan munosabati masalasi muhim o‘rin egalladi. Protagorning “inson hamma narsaning o‘lchovidir”, – degan qoidasi antik aksiologiyaning klassik formulasi edi. Unda antik dunyo gumanizmi yaqqol ifodalandi. Qadimgi dunyo va hozirgi davr tadqiqotchilari Protagorning qarashlarida sub’ektivizm va relyativizm mavjudligini ta’kidlaydilar. Aristotel “Metafizika” asarida yozishicha: “Protagor inson hamma narsaning o‘lchovidir deyishi bilan faqat quyidagilarni nazarda tutgan: har bir odam nima qanday tuyulsa ham mavjud, ham mavjud emasdir, u yaxshi va yomondir; boshqa qarama-qarshi fikrlar ham to‘g‘ridir, chunki bir narsa chiroyli bo‘lsa, boshqalari aksinchadir: har bir odamga nimaiki qanday tuyulsa, u o‘lchovdir”. Protagor qarashlarini butunlay rad etish qiyindir; buning ustiga uning tanqidchilarini beg‘araz edilar, deb ham bo‘lmaydi. Umuman olganda, “inson barcha narsaning o‘lchovidir” degan formulaning ilgari surilishi antik gumanizmning qaror topishi uchun, olamni gumanistik – qadriyatli tushunish uchun g‘oyat muhim

ahamiyatga ega edi. Ikkinchidan, bu formula falsafiy tafakkur olamiga kirib keldi va turlicha talqin etila boshladi. Platon olamga qadriyatli munosabatning eng muhim momentlarini, uning xilma-xilligini va birligini ochib berdi. U eng ko‘p qadrlanadigan boylik g‘oyasiga ta’rif berdi: “O‘rganilishi kerak bo‘lgan narsalar faqat qadriyat tufayligina o‘rganiladi; qadriyat ularga ham borliq, ham mavjudlik beradi, qadriyatning o‘zi garchand mavjudlik bo‘lmasa-da, u mavjudlikdan tashqaridadir, o‘z afzalliklari va kuchi bilan undan yuksaklikda turadi”. Aristotel qadriyatning mohiyati va mavjudligini tushunishda Platon fikriga qo‘shila olmadi: “Agar qadriyatga borliq xos bo‘lmasa, u qadriyat emasdir. SHuning uchun ham qadriyat va qadriyat borlig‘i, go‘zallik va go‘zallik borlig‘i ayniy bo‘lishi kerak”. Aristotel o‘zining “Katta etika” asarida qadriyatni shunday ta’rifladi: “Oliy qadriyat mukammal maqsaddir, mukammal maqsad esa, aftidan, baxtdan boshqa narsa emasdir. Biroq baxt juda ko‘plab qadriyatlardan tashkil topadi”. Aristotel qadriyat va go‘zallikni bir-biri bilan qorishtirmadi, balki qadriyatning o‘ziga xos xususiyatlarini ochishga harakat qildi. “Ritorika” asarida go‘zallikni foydalilikka qarshi qo‘ydi: “Foydali narsa har bir odamning o‘zi uchun qadriyatlidir, go‘zallik esa dahlsiz qadriyatdir”. Aristotel qadriyatlar tasnifini berdi va ongli ravishda “qadriyat”, “qadrli” tushunchalarini qo‘lladi. U “Katta etika” asarida qadriyatni quyidagicha qismlarga ajratadi: “Qadriyatlardan biri e’zozlanadigan, ikkinchisi maqtaladigan narsalarga, uchinchisi esa qadriyat-imkoniyatlariga taalluqli bo‘ladi. Men e’zozlanadigan qadriyat deganda yaxshi, ilohiy qadriyatni, masalan, jon va aqlni – nimaki birlamchi bo‘lsa, o‘shalarni nazarda tutaman. Yana buning ustiga, e’zozlanadigan qadriyat hamma tomonidan hurmat qilinadigan va sharaflanadigan narsalardir. Fozillik ham qadriyatdir, u tufayli inson hurmatga munosib bo‘ladi, u shundagina fozil kishilarga xos go‘zallikka ega bo‘ladi: “Maqtaladigan qadriyat” – bu, xatti-harakati maqtovga loyiq bo‘lgan fozil kishilarning o‘zidir; “Qadriyat – imkoniyat, bu – hokimiyat, boylik, kuch-qudrat, go‘zallik”. Qadriyatning to‘rtinchi turi ham bor. Bu - “qandaydir saqlovchi yoki boshqa qadriyatlarni yaratuvchi” qadriyatdir. Masalan, gimnastika ana shunday qadriyat bo‘lib, u sog‘liqni saqlaydi. Aristotel qadriyatning boshqa mantiqiy prinsiplar asosida ham qismlarga ajratdi. U qadriyatlarni final va instrumental, moddiy va ma’naviy qadriyatlarga ajratdi. “Qadriyat jonda bo‘lishi (fozillarda shunday) yoki tanada bo‘lishi (masalan, sog‘lik, go‘zalliklar) yoxud tashqarida bo‘lishi (boylik, xokimiyat va shunga o‘xshashlar) mumkin”. Jondagi qadriyat “eng yuksak” qadriyatdir. U namoyon bo‘lishiga ko‘ra uch xil: “oqillik, fozillik va lazzatlanish” bo‘lib, ularni o‘zida mujassamlashtiradi. Aristotel aksiologiya uchun g‘oyat muhim bo‘lgan masalalardan biri bo‘lgan turli sub’ektiv baholar va qadriyatlarning nisbati masalasini kun tartibiga qo‘ydi. U qadriyatli munosabatlar kishilarning yoshi va axloqiy sifatlariga bog‘liq ravishda bir-biridan farqlanishini alohida ta’kidladi. U: “xilma-xil narsalar bolalar va erkaklarga, tentak va fozil kishilarga qadrli bo‘lib tuyulsa, bu mutlaqo oqilonadir”, – deb yozdi. Uning fikricha, fozil inson haqiqiy qadriyat o‘lchovidir.

Qadimgi Xitoy falsafiy tafakkurida qadriyat to‘g‘risidagi tasavvurlar va tushunchalarning qanday paydo bo‘lganligi va rivojlanganligini kuzatishimiz mumkin. Bu erda ham falsafiy tafakkur dastavval olamni mifologik tasavvur etishga asoslandi. Biroq, bu uning rivojlanmaganligi va “tarixan cheklanganligidan” emas, balki unda olamga bo‘lgan munosabat avval boshdanoq qadriyatli xarakterda bo‘lganligidan guvohlik beradi. Qadimgi Xitoy falsafasida olamni qadriyatli idrok etishga bo‘lgan intilish ancha kuchli bo‘lgan. Bu turlicha falsafiy ta’limotlarda olamning birlamchi elementlari (osmon, er, suv, olov va h.k.)ning qadriyatli talqin etilishida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Konfutsiy (eramizdan avvalgi 551-479 yillar) tomonidan tuzilgan va qayta ishlangan “Shu szin” (“Tarix kitobi” yoki “Hujjatlar kitobi”)da insonning besh qobiliyati: tashqi qiyofa – bu fazilat, u xulq-atvorni qat’iylashtiradi, nutq – haqiqatga amal qilishga va so‘zining ustidan chiqishga imkon beradi, ko‘rish xossasi – nazokatli va ehtiyotkor bo‘lishga, tafakkur xossasi – donishmand bo‘lishga imkon beradi. Shu asosda besh xil baxt (uzoq umr ko‘rish, boylik, tana sog‘ligi, ruh xotirjamligi, “donishmandlikka muhabbat”, “osoyishta vafot etish” va olti baxtsizlik (falokat tufayli umrning qisqarishi, kasallik, musibat, qashshoqlik, tananing majruhligi, aql ojizligi) alohida ta’kidlanadi. Konfutsiy qarashlarini o‘zida aks ettirgan “Lun yuy” kitobida nimaning foyda va nimaning zarar keltirishi haqida shunday deyiladi: quvonchning uch turi foyda keltiradi: 1) urf-odatga muvofiq ravishda qilgan xatti-harakatingdan va musiqadan quvonsang; 2)

odamlarga ezgu ishlar haqida gapirsang; 3) donishmand odamlar bilan do‘st bo‘lsang. Biroq, xursandchilik zarar keltirishi ham mumkin: isrofgarchilikka berilishdan, bekorchilikdan va maishatbozlikdan quvonsang, u zarar keltiradi. Konfutsiy olijanob erkakning beshta sifatini alohida ta’kidlaydi: “Olijanob erkak ezgu ishlarni qilishda isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaydi; u zo‘r berib mehnat qilar ekan, achchig‘lanmaydi; istaklarida hasis, ulug‘likka mag‘rur emas; u hurmat qozonadi, biroq qattiqqo‘l emas”. Konfutsiy ta’limotida “Jen” – insonparvarlik, insonga muhabbat, odamiylik, mehribonlik, fozillik, hamdardlik singari ma’nolarini anglatadi. Ravshanki, bu tushuncha zaminida ikki yarim ming yildan keyin ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan qadriyatli sifat nazarda tutiladi. Shogirdning jen to‘g‘risidagi savoliga Konfutsiy javob berib, shunday degan edi: “O‘zing istamaganni boshqalarga xam qilma, shanda davlat ham, oilada ham hech kim senga dushmanlikni his etmaydi” Anglashiladiki, qadimgi xitoy falsafasida “qadriyat” falsafiy kategoriya sifatida emas, balki kundalik turmushda qanday bo‘lsa, shunday ma’noda qo‘llanilgan. Biroq, shunga qaramay, masalaning xursandchilik yoki do‘stlikning qanday turi foyda yoki zarar etkazadi tarzida qo‘yilishi uning aksiologik muammo ekanligidan dalolat beradi. Konfutsiyning shogirdlaridan biri bo‘lgan Yu-szi shunday degan edi: “Urf-odatlardan foydalanish shuning uchun qadrliki, u kishilarni murosaga keltiradi”. Uning so‘zlarida aksiologik yondashuv o‘z ifodasini topgan edi. “Qadimgi hukmdorlarning yo‘li go‘zal edi. Ular o‘zlarining katta-kichik ishlarini urf-odatga muvofiq amalga oshirganlar”. Bunday qadriyatli yondashuvni biz qadimgi xitoy falsafasining bir ta’sirchan ta’limoti bo‘lgan daosizmda ham ko‘rishimiz mumkin. Bu ta’limot “Dao de szin” (“Yo‘l va ezgulik kitobi”)da o‘z ifodasini topgan. Bu kitob Konfutsiyning zamondoshi Lao – szi qalamiga mansub edi. “Dao de szin”da foyda va zarar singari qadriyatli tushunchalar to‘g‘risida, turli hodisa va predmetlarni baholash xususida gap ketadi. Lao – szi o‘zi g‘oyat qadrlaydigan “uch hikmat” haqida shunday deb yozgan edi: “birinchisi – bu, insonni sevish, ikkinchisi – tejamkorlik, uchinchisi – boshqalarning oldiga o‘tib keta olmayman”. Risolada fozillik, haqiqat, rostgo‘ylik, samimiyat, sha’n-shavkat, boylik, go‘zallik singari qadriyatli hodisalar va ularning ziddi bayon etilgan. Lao-szi kishilarni muayyan qadriyatli yo‘nalishga – dao (barcha narsalarning tub asosi)ga amal qilishga chiqaradi. Uning fikricha, dao yuksak darajada qadrlangan va kishilar boylikka ortiqcha intilmaganlar. Lao-szining izdoshlaridan biri Chjuan-Chjou (eramizdan avvalgi 369-286 yillar) daosizm g‘oyalarini izchil davom ettirib, o‘zining “Chjuan-szi” kitobida barcha qadriyatlarning nisbiy xarakterga ega ekanligini ta’kidlaydi. “Osmon ostida kimning go‘zallik haqidagi bilimi haqiqat? – deb yozadi mutafakkkir, – urg‘ochi maymunni izlayotgan erkak maymunnimi yoki urg‘ochi bug‘i bilan qo‘shilayotgan erkak bug‘inimi, yohud urg‘ochi baliq bilan suzayotgan erkak baliqnimi? Axir, afsonaviy go‘zallar Mao Szyan va Szi Li” faqat insongina go‘zal deb hisoblaydilar; baliqlar esa uni (odamni) ko‘rishi bilanoq daryo tubiga qochadilar, qushlar yuqoriga parvoz qiladilar, bug‘ilar esa orqasiga qaramay qochadilar. Agar Duntin ko‘li qirg‘oqlarida “Quyoshning chiqishi” kuyi ijro etiladigan bo‘lsa, shu zahoti qushlar uchib ketadilar, hayvonlar qochadilar, baliqlar chuqurlikka tomon suzadilar. Odamlar esa bu kuyni eshitib, uning ijrochilarini qurshab oladilar va ularga havas bilan qaraydilar”. Qadriyatning nisbiyligini tushunish uning insoniy tabiatini tushunishga, uning insonga daxldorligini, inson uchun qimmatli ekanligini anglashga imkon beradi. Biroq, faylasuflar insoniyat olamidagi go‘zallik va xunuklik, adolat va adolatsizlik, baxt va baxtsizlik turli davrlar va turli xalqlar tasavvurida nozik chegaraga ega ekanligini ko‘rdilar. “Agar nodir predmetlar qadrlanmaganda, xalqlar o‘rtasidagi o‘g‘riliklar bo‘lmas edi” – deydi “Dao de szin”da. Shuning uchun ham donishmand kishilar qiyinchilik bilan topilgan predmetlarni qadrlamaydilar. Qadimiy Xitoy mutafakkirlari qadriyatlarning nisbiyligini ta’kidlaydilar, biroq ularning o‘rtasiga tenglik alomatini qo‘ymaydilar, relyativizm cheksiz emas, deb hisoblaydilar. Qadimgi Xitoy mutafakkirlarini xizmati shunda ediki, ular sub’ektiv bahoning nisbiyligini ta’kidlabgina qolmay, qadriyatlarning o‘zi ham ob’ektiv nisbiy xarakterga ega ekanligini ko‘rsatdilar.

Qadrlanishning mezoni muammosi antik dunyo mutafakkirlarining doimiy e’tiborida bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. T; “Fan”, 1968.

2. Jalolov. H. Oila, mahalla va maktab hamkorligi. Tarbiya. №2 (6), 2006. B.13
3. Ziyomuhammadov B. Komillikka eltuvchi kitob.T; “TURONIQBOL”, 2006. B.191
4. Komilov T., Abidova S. Milliy axloqiy qadriyatlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati. O‘zR FA, “Fan”, 2000.B.20;
5. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug‘ati. (A. Jalolov va Xonnazarov umumiy tahririda). – T; SHarq, 1998, B. 279
6. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug‘at. –T; “SHarq”, 1998. B.33.
7. Musurmonova O. Oila ma’naviyati – milliy g‘urur. T; “O‘qituvchi”, 1999. B.198.
8. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. “G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”. T; 2010. B. 707.
9. Muhammad payg‘ambar qissasi. Hadislar. T; “Kamalak”. 1991. B.51-60, 61
10. Milliy istiqlol g‘oyasi: ko‘rgazmali vositalar. T; «Ma’naviyat”, 2001. B.12